

OTB BILAN STRATEGIK SHERIKLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev
18 noyabr kuni Osiyo taraqqiyot banki prezidenti
Masato Kanda boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.**



Suhbat avvalida OTB rahbari mamlakatimiz yetakchisini strategik sheriklikning 30 yilligi hamda 2025-2026-yillarda bankning Boshqaruvchilar kengashiga raislik O'zbekistonga o'tgani bilan tabrikladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar dasturini amalga oshirish doirasida keng ko'lamli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Hamkorlikda yuksak darajaga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zbekiston bankning mintaqadagi eng yirik hamkori bo'lib qolmoqda – qo'shma loyihalar portfeli 15 milliard dollardan oshdi. Shuningdek, “yashil” energetika, transport, raqamli transformatsiya, ta'lim va boshqa yo'nalishlarda umumiy qiymati 3 milliard dollardan ziyod loyihalar ishlab chiqilmoqda. Suveren bo'lmagan moliyalashtirish mexanizmlari faol joriy etilmoqda.

OTB Boshqaruvchilar kengashining 2026-yil may oyida Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan yillik yig'ilishiga tayyorgarlik

qo'rishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Prezidenti bo'lajak tadbir doirasida OTB bilan Kengaytirilgan strategik sheriklik dasturini imzolash, unda infratuzilmani rivojlantirish, texnik va muhandislik kadrlarini tayyorlash, xotin-qizlar va yoshlarni yangi kasblarga o'qitish, kambag'allikni qisqartirish, ipoteka bozori va xususiy sektorni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish tashabbusini ilgari surdi.

Bankning yirik milliy va

mintaqaviy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida transport, energetika va savdo loyihalarini ilgari surishda faol ishtirok etishi muhim ekanini ta'kidlandi.

OTB prezidenti Masato Kanda mamlakatimizdagi keng ko'lamli yangilanishlar natijalarini yuksak baholadi hamda Yangi O'zbekistonda ortga qaytmas tus olgan islohotlar dasturini amalga oshirilishga har tomonlama ko'maklashishga tayyorligini bildirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

MEHNAT MIGRATSIIYASI SOHASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LIDAGI YANGI REJALAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish va migratsiya jarayonlarini xalqaro standartlar asosida yo‘lga qo‘yish masalalari yuzasidan axborot berildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolarni mehnat qilish uchun chet elga tartibli jo'natish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlar tufayli mehnat bozori diversifikatsiya qilinmoqda, fuqarolar, asosan, yuqori maoshli ish o'rinlarida ishlash uchun xorijga ketmoqda. Natijada 2016-yildagiga nisbatan chet elda ishlayotgan fuqarolarning soni kamaygan bo'lsa-da, ular tomonidan yuborilgan mablag' 3,8 milliard dollardan 2025-yilning o'n oyi yakunida 15,8 milliard dollarga yetdi.

Taqdimotda xorijiy mehnat bozorida malakali mutaxassislariga katta talab borligi qayd etildi. Hozirda 140 ming nafar mutaxassisga buyurtma mavjud, ammo til va kasbiy malaka bo'yicha talablarga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash borasida qilinadigan ishlar hali ko'pligi ko'rsatib o'tildi. Bundan tashqari, mehnat migratsiyasi xizmatlari tarqoq bo'lgani uchun odamlar ovoragarchilikka duch kelmoqda.

Shu maqsadda sohadagi xizmatlarni tartibga solish, barcha jarayonlarni “yagona darcha” tamoyili asosida birlashtirish vazifasi qo'yildi.

Toshkent shahrining Uchtepa tumanida “Xorijga ishga tayyorlash markazi”, Termiz shahrida “Yagona migratsiya xizmatlari” markazi tashkil etiladi. Poytaxtning Yashnobod tumanida esa xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikda nemis va yapon tillariga o'qitish maktablari ochiladi.

So'nggi yillarda Yevropa mamlakatlariga migratsiya oqimi 4 barobar ko'paygani ta'kidlandi. U yerda ishlayotgan fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish muhimligi qayd etildi. Ayni paytda qator Yevropa davlatlari bilan mehnat migratsiyasi bo'yicha kelishuvlar mavjud emas. Prezident tomonidan tegishli hukumatlararo hujjatlarni imzolash ishlarini jadallashtirish bo'yicha topshiriq berildi.

Shuningdek, xorijiy davlatlarda migratsiya bo'yicha attashe va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mehnat migratsiyasi agentligi vakolatxonalarini ko'paytirish, mamlakatimiz hududlarida esa viza markazlarining ko'chma ofislarini ochish rejalashtirilgan.

Taqdimotda migratsiya xizmatlarini raqamlashtirish masalasi ham ko'rib chiqildi.

“Xorijda ish” platformasida 25 turdagi xizmat taqdim etilmoqda, joriy yil boshidan buyon 524 ming fuqaro onlayn xizmatlardan foydalanar. Lekin xizmatlarning barchasi ham raqamlashmagan.

Prezidentimiz tizimga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali xizmat ko'rsatish jarayonlarini yanada takomillashtirish zarurligini qayd etdi. Platformada biometrik identifikatsiya, xorijdagi ish o'rinlarini real vaqt rejimida kuzatish, fuqarolarga masofaviy maslahat berishni yo'lga qo'yish bo'yicha rejalar haqida axborot berildi. Migratsiya agentligida fuqarolarga tunu kun tezkor yordam beradigan situatsion markaz tashkil etish taklif qilindi.

Taqdimotda noqonuniy migratsiya va konsalting xizmatlari ko'rsatishda fribgarlik holatlari ko'payib borayotgani ko'rsatib o'tildi. Shu munosabat bilan mehnat migrantlarining huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida xalqaro aeroportlarda interaktiv migratsiya infokiosklarini o'rnatish, litsenziyasiz faoliyatni amalga oshirgan konsalting tashkilotlari uchun jarima miqdorini oshirish taklif qilindi. Jinoyat kodeksiga noqonuniy migratsiyani tashkil etish va ko'maklashish uchun javobgarlik kiritish masalasini o'rganish topshirildi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni ma'qullab, mehnat migratsiyasi jarayonlarini yanada qulay, xavfsiz va shaffof qilish bo'yicha mutasaddilarga qo'shimcha ko'rsatmalar berdi.

KUZ-QISH MAVSUMI OLDIDAN VAZIFALAR BELGILAB BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ko‘mir qazib chiqarishda erishilgan natijalar va kelgusi vazifalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Kuz-qish mavsumida aholi xonadonlari, ijtimoiy soha muassasalari hamda iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida energetikaning barcha tarmoqlari qatori ko'mir sanoatida ham yangi loyihalar amalga oshirilmoqda, ishlab chiqarish quvvatlari va hajmlari ko'paytirilmoqda.

2024-2025-yillar kuz-qish mavsumida qariyb 8,7 million tonna ko'mir qazib olinib, issiqlik elektr stansiyalari, byudjet tashkilotlari va aholiga yetkazib berildi.

Taqdimotda 2025-2026-yillar kuz-qish mavsumida 10 million tonna ko'mir ishlab chiqarish rejalashtirilgani ma'lum qilindi. Buning uchun “O'zbeko'mir” aksiyadorlik jamiyati korxonalarining moddiy-texnika bazasi kuchaytirildi, sohada qo'shimcha ishlab chiqaruvchilarning faoliyati uchun sharoitlar yaratildi.

Prezidentimiz mavsum davomida aholini ko'mir bilan kafolatli ta'minlash yuzasidan ko'rsatmalar berdi. Korxonalarni modernizatsiya qilish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, sohada bozor

tamoyillari hamda raqobatni rivojlantirib, mahsulot tannarxini tushirish muhimligi qayd etildi.

Taqdimotda uran yo'nalishidagi yangi investitsiya loyihalarini jadallashtirish, geologiya-qidiruv ishlarining ko'lamini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish masalalari ham ko'rib chiqildi.

O'ZA.

Senatorlar – hududlarda

HAMKORLIKNI KUCHAYTIRISH — DAVR TALABI

Joriy yilning 18-noyabr kuni Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlار, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi Alisher Agzamxodjayev Sirdaryo viloyatining Guliston tumanida bo'ldi.

Senator tashrif doirasida tuman Kengashi deputatlari va “mahalla yetitilgi” faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Mahallalarda nuroniyalar hamda yoshlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlarda ularni qiziqtirgan savollarga javob berdi va mahalliy aholining fikr-mulohazalarini tingladi.

Uchrashuvda iqtisodiyot, investitsiya va turizm sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, yangi sanoat zonalarini faoliyatini

samarali tashkil etish masalalari ham muhokama qilindi.

Bundan tashqari, tumanda faoliyat yuritayotgan yirik sanoat korxonalari – parranda go'shti mahsulotlari ishlab chiqaruvchi “GULISTAN CHICKEN STEWS” MCHJ, sun'iy tolali kalava ip mahsulotlari ishlab chiqaruvchi “MILI TEKS SIRDARYO” MCHJ faoliyati bilan ham yaqindan tanishildi.

➡2

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

HAYOTIY MASALALAR YECHIMI VA MILLIY MANFAATLAR ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotimizga daxldor masalalar, jumladan, fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro hujjatlari ratifikatsiya qilishga qaratilgan qonun loyihalarini, shuningdek, Ombudsmanning tegishli qonunga qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonunchilik taklifi hamda parlament nazorati faoliyatiga doir masalalar atroflicha ko'rib chiqildi.

Yer uchastkalaridan foydalanishga oid normalar takomillashtirilmoqda

Majlisda “Davlat boji to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasiga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish haqida”gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, davlat va jamiyat manfaatlarini ko'zlab yer ajratishda belgilangan investitsiya majburiyatlarining bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

➡2

Shukuh

ISTIQLOLIMIZ VA YORUG‘ IQBOLIMIZ TIMSOLI

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinganining 34 yilligi “Bir Vatan, bir el, bir bayroq!” shiori ostida mamlakatimiz bo‘ylab keng nishonlandi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan qator tashkilotlar bilan hamkorlikda joriy yilning 8 – 18-noyabr kunlari o'tkazilgan “Bir bayroq ostida” respublika estafetasi yurtodoshlarimizni hamjihatlik, vatanparvarlik ruhida yanada jipslashtirdi.

Ramziy bayroq 8-noyabrdan boshlab yurtimizning barcha hududlarini qamrab olgani holda uch yo'nalishda poytaxt tomon harakatlandi. Bayroq estafetasi birinchi – g'arbiy yo'nalish Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoqdan boshlanib Xorazm, Buxoro, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari orqali yurgan bo'lsa, ikkinchi – janubiy yo'nalish Surxondaryo viloyati Sariosiyoqdan boshlanib Qashqadaryo, Samarqand viloyatlari orqali hamda uchinchi – sharqiy yo'nalish Andijon viloyati Xonoboddan boshlanib, Farg'ona, Namangan va Toshkent viloyatlaridan olib o'tildi va Toshkent shahriga yetib keldi.

Ramziy bayroq har bir hududda ko'tarinki ruhda, o'ziga xos shukuh bilan kutib olindi. Tantanali tadbirlarda milliy ramzimiz ahamiyati, ulug'vorligi, Vatan madhi tarannum etilgan kuy-qo'shiqlar yangradi.

Uch yo'nalishda harakatlangan ramziy bayroqlar kuni kecha Toshkent shahridagi “Xalqlar do'stligi” maydoniga yetib keldi.

Bu yerda milliy tug'imizni keng jamoatchilik vakillari, ziyolilar, olimlar, shoirlar, adabiyotshunoslar, san'at va madaniyat namoyandalari, sportchilar, harbiylar, yoshlar kutib oldi.

➡3

Farrux ZOKIROV:

SAN’AT XALQNI BIRLASHTIRADI, MILLATNI YUKSALTIRADI!

O‘zbekistondan tashqari yana sakkizta respublika xalq artisti, bir qancha unvonlar sohibi, salkam 55 yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan “Yalla” ansamblining badiiy rahbari, o‘zbek estrada san’atida maktab yaratgan, o‘z ijodi bilan dunyoga tanilgan, Zokirovlar sulolasining yorqin vakili, qo‘shiqlarida betakror ohanglar bilan ona yurtini ulug‘lagan, el suvgan san’atkor, O‘zbekiston faxri Farrux ZOKIROV bilan musiqa, ijod va zamon haqida gurgunglashdik.

Suhbatimiz qisqa savollardan boshlandi.

Eng sevimli ichimligi — achchiq qorachoy.

Eng sevimli taomi — moshkichiri.

Eng sevimli rangi — qizil.

Eng sevimli badiiy asari — “O‘tkan kunlar”.

Eng sevimli kinosi — “Nasridin Buxoroda”.

Eng sevimli aktyori — Shukur Burhonov.

Eng sevimli aktrisasi — Lutfixonim Sarimsoqova.

Eng sevimli sport turi — boks.

Eng sevimli maskani — Toshkent (shu savolgajavab o‘rnida “Toshkanim onam” qo‘shig‘idan xirgoyi qilib berdi).

Xobbisi — sukunatni tinglash... (Suhbatdoshimning fikricha, sukunat ham so‘zlaydi, faqat uni eshitibolish kerak... Qoyil lekin!)

— Farrux Karimovich, suhbatga tayyorlanish jarayonida “Yalla” ansambli, xususan, siz yaratgan qo‘shiqlarni yana bir sidra tinglab chiqdim va maza qildim. Bolaligim, yoshligim yodingma tushdi.

Siz, mana, salkam qutlug‘ sakson yoshni qarshilayapsiz. Umrning shu pallasida kimlar va nimalar sizga olislarda qolgan beg‘ubor davrlarni yodga soladi?

— Eh, qay birini aytay. Bilasizmi, yosh o'tgani sayin odam bolasi qaytadan bolaga aylanib qolarkan — hissiyotlari noziklashib, ta'sirchanligi ortarkan. Bolalikni eslatadigan xotiralar esa qadrdon mahallada, har bir ifroda jonlanadi.

Bolaligimizda har shanba va yakshanba kunlari teatrga borardik. Bu oilaviy an'ana edi. Sahnava uning ortidagi ijodiy muhitni, ulug' insonlarni ko'p kuzatganman. Lutfixonim Sarimsoqova, Halima Nosirova kabi buyuk san'atkorlar mehr bilan erkalashardi...

Teatrga borsam, to'y yoki tadbirlarda yoshlikda ko'cha changitib ulg'aygan qadrdonlarimni ko'rsam, o'z-o'zidan

bolalik bilan bog'liq shirin xotiralar yodga tushadi. Eski shahardagi hovlimizni, bog'imizni, oilaviy yig'inlarimizni ko'p va xo'p qo'msayman. Odamoxun otamning o'zbekona mehmondo'stliklari, osh damlashlari, kabob pishirishlari, hazil-huzul hangomalarini ko'p eslayman. O'sha yig'inlarga Botir akamning kelinoyim va o'g'illari bilan mehmon bo'lib kelishlarini sog'inaman. U davralarning gashti, fayzi boshqacha edi. Shunaqangi ajoyib damlar ediki, haligacha entikib eslayman.

“Yalla”ga kelsak, u men uchun haroratli xotiralar silsilasining davomidir. Yoshligim “Yalla” bilan o'tdi, bugunim ham shu guruh bilan kechyapti.

➡4

Aks sado

KELAJAGIMIZ — HAMJIHATLIKDA

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi mintaqaning tarixiy ahamiyatga ega navbatdagi diplomatik muvaffaqiyati sifatida eʼtirof etilishi mumkin. Sababi Prezidentimiz tomonidan bildirilgan tashabbuslar, ilgari surilgan gʻoyalar va qabul qilingan qator muhim hujjatlar mintaqamizning siyosiy, iqtisodiy va gumanitar integratsiyasi yangi bosqichga kirganini yana bir bor namoyon etdi.

Sammitning eng muhim yangiligi bu Ozarbayjon Respublikasining Maslahat uchrashuvi formatiga toʻla huquqli aʼzo sifatida qabul qilinishidir. Bu nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasidagi hamkorlik doirasini kengaytiradi, balki Janubiy Kavkaz bilan yangi geosiyosiy va iqtisodiy bogʻlanishlar uchun mustahkam zamin yaratadi.

Xitoy — Qirgʻiziston — Oʻzbekiston temir yoʻlining qurilishi, Transafgʻon yoʻlagining rivojlanishi, Transkaspik koridorlarining kengayishi — bularning har biri mintaqaning geografik ustunligini iqtisodiy afzallikka aylantiradi. Bunday loyihalar nafaqat mamlakatlar oʻrtasidagi transport bogʻliqligini kuchaytiradi, balki Kaspiydan Yevropagacha boʻlgan ulkan logistik makonning birlashuvini taʼminlaydi.

Shu bois davlatimiz rahbari tomonidan bu qaror “Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz oʻrtasida mustahkam koʻpriklar barpo etish” deya baholandi. Darhaqiqat, ushbu qadam ikki mintaqa oʻrtasidagi transport yoʻlaklari, energetik hamkorlik, savdo va investitsiya aloqalarining yangi bosqichga koʻtarilishiga xizmat qiladi.

Ushbu oʻzgarish nafaqat davlatlar oʻrtasidagi strategik sheriklikni, balki mintaqaviy siyosiy vaznni ham sezilarli oshiradi. Bugungi kunda Markaziy Osiyoda birdamlik ruhining mustahkamlanishi xalqaro doirada yagona pozitsiyani shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2035-yilgacha moʻljallangan mintaqaviy iqtisodiy dasturini ishlab chiqish taklifi esa oʻzaro savdo hajmini kamida 2 baravar oshirish, maʼmuriy toʻsiqlarni qisqartirish, erkin iqtisodiy zonalaridan birgalikda foydalanish, elektron tijoratni rivojlantirish kabi yoʻnalishlarni qamrab oladi. Haqiqatan ham, bugungi raqamli iqtisodiyot asrida Markaziy Osiyo mamlakatlarning elektron savdo platformalarini birlashtirish tashabbusi ulkan salohiyatga ega.

Qabul qilingan Mintaqaviy xavfsizlik konsepsiyasi va Tahdidlar katalogi yaqin yillarda yagona xavfsizlik siyosatini shakllantirishda asosiy dasturil-amal boʻladi. Shu bilan birga, Afgʻoniston masalasi ham oʻrinli tarzda diqqat markazida boʻldi. Davlatimiz rahbarining Afgʻonistonni infratuzilma va energetika loyihalariga integratsiya qilish boʻyicha taklifi mintaqaviy barqarorlikka erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Shu oʻrinda aytib oʻtish joizki, 2026 — 2036-yillarni “Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish boʻyicha amaliy harakatlarni oʻn yilligi” deb eʼlon qilish taklifi kelajak uchun oʻta muhim tashabbus. Ayniqsa, Suv xoʻjaligi boʻyicha mintaqaviy kompetensiyalar markazini Toshkentda tashkil etish taklifi sohadagi kadrlar yetishmasligi muammosiga yechim topishga xizmat qiladi.

Hozirgi global murakkab geosiyosiy sharoitda mintaqada davlatlarining oʻzaro birdamligi har qachongidan muhim. Shu bois mintaqa yetakchilarining Maslahat uchrashuvi hamda unda ilgari surilgan tashabbuslar, imzolangan hujjatlar Markaziy Osiyoni kelgusi 10 — 20 yilda qanday koʻrinishda rivojlantirishning aniq konseptual yondashuvi boʻldi, deyish mumkin.

Eng muhimi, ushbu tashabbuslar mamlakatimiz uchun ham, butun mintaqa uchun ham ulkan strategik ahamiyatga ega. Bugungi kunda bizning kuchimiz — birlikda, taraqqiyot sari yoʻlimiz — hamkorlikda, kelajagimiz esa strategik hamjihatlikdadir. Markaziy Osiyo davlatlari yettinchi Maslahat uchrashuvi ana shu yoʻlning yangi, mustahkam bosqichini boshlab berdi.

Gulnoraxon ABDUVOHIDOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

OʻZARO ISHONCH MUSTAHKAMLANADI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida boʻlib oʻtgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi va unda erishilgan kelishuvlar mintaqa xalqlari orzu-intilishlarining namoyoni boʻldi, deyish mumkin.

Toshkent sammitida davlatimiz rahbari nutq soʻzlab, mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash boʻyicha qator dolzarb tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, bugungi kunda Markaziy Osiyo — bu barqaror oʻsish va farovonlik uchun oʻlimdagi yangi imkoniyatlar ochayotgan jadal taraqqiyot va samarali hamkorlik makoni ekanligi asosli ravishda qayd etib oʻtildi. 2024-yili mamlakatlar oʻrtasidagi oʻzaro savdo hajmi 10,7 milliard AQSH dollariga yetgani hamda mintaqamizga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi 17 foizga koʻpaygani urgʻulandi.

Shuningdek, kelgusida Yangi Markaziy Osiyo hamkorlik formatini yanada rivojlantirish boʻyicha muhim takliflar bildirildi. Uchrashuvlarni mintaqaviy muloqotning maslahat shaklidan “Markaziy Osiyo hamjamiyati” strategik formatiga aylantirish taqozo etilayotgani taʼkidlanib, ushbu formatning institutlari va tashkiliy asoslarini izchil mustahkamlashni nazarda tutadigan Maslahat uchrashuvlari toʻgʻrisidagi nizomni ishlab chiqish, rotatsiya asosida faoliyat yuritadigan Kotibiyatni taʼsis qilish, milliy muvofiqlashtiruvchilar maqomini Prezidentlarning maxsus vakillari darajasiga koʻtarish taklif etildi.

Bu tashabbuslarning ahamiyati beqiyos. Masalan, Maslahat uchrashuvlari toʻgʻrisidagi nizomni ishlab chiqish qoʻshma formatdagi ishlash mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash va aniq tartibga solishga qaratilgani bilan diqqatga sazovor. Ushbu nizom qabul qilinishi orqali Maslahat uchrashuvlarining maqsadi, vazifalari

va vakolatlari aniq belgilanadi. Ularni tashkil etish, oʻtkazish, qarorlar qabul qilish, qarorlarni iro etish kabi institutsional tartiblar yoʻlga qoʻyiladi.

Rotatsiya asosida faoliyat yuritadigan Kotibiyatning taʼsis qilinishi esa barcha ishtirokchi davlatlar uchun tenglik va shaffoflikni taʼminlab, rahbarlikning doim bir davlatda qolib ketishining oldini oladi. Umumiy formatdagi masʼuliyatni barchaga teng taqsimlaydi va davlatlar oʻrtasidagi hamjihatlik va ishonchni mustahkamlaydi.

Milliy muvofiqlashtiruvchilar maqomini Prezidentlarning maxsus vakillari darajasiga koʻtarish esa diplomatik va siyosiy maqomni oshirish orqali formatdagi ishlarining darajasini yanada koʻtarishga turki beradi.

Prezidentimizning xalq diplomatiyasi sohasidagi qadriyat va anʼanalimizga tayangan holda, boy hayotiy tajriba va obroʻ-eʼtiborga ega jamoat arboblariidan iborat Oqsoqollar kengashini tuzish taklifi ham alohida ahamiyatga ega. Zotan, bu mamlakatlarmizda avlodlar oʻrtasidagi aloqalarni kuchaytirish, umumimintaqaviy hamjihatlik va oʻziga xoslikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Poytaxtimizda boʻlib oʻtgan anjuman koʻp yillik birgalikdagi ishlar sarhisobi va mintaqaviy hamkorlikning yangi yoʻnalishlarini belgilab olish imkonini berdi. Bu, oʻz navbatida, mintaqa xalqlari oʻrtasidagi ming yillik rishtalar yangi daraja va koʻrinishda davom etishiga, avlodlar hayotini yanada obod va farovon qilishga zamin yaratadi.

Xushvaqt HAYITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

ISTIQLOLIMIZ VA YORUGʻ IQBOLIMIZ TIMSOLI



Akmal Muhammadovdovlagan surati.

Maydonda oʻtkazilgan davlatimiz bayrogʻi istiqlolimiz, suverenitetimiz, xalqimizning ezu orzu-intilishlari, yorugʻ kelajagi, shiddatli taraqqiyotimiz timsoli ekanini taʼkidlandi.

— Davlat ramzlarning tarixiy, maʼnaviy va tarbiyaviy ahamiyati ulkan, — deydi Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi rahbari Otabek Hasanov. — “Bir bayroq ostida” respublika estafetasi davomida bunga yana bir bor amin boʻldik. Mazkur keng koʻlamli loyiha xalqimizni yagona maqsad yoʻlida birlashtirish, ezu orzu-intilishlarga ilhomlantirish, qalblarda vatanparvarlik va sadoqat tuygʻularini yanada mustahkamlashga xizmat qilganiga ishonamiz.

Sanʼat ustalari va ijrochi yoshlar ishtirokidagi gala-konsert hamda dronlar shousi bayram shukuhini yanada oshirdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bayrogʻi qabul qilingan kunga bagʻishlangan tadbirlar, muloqot va uchrashuvlar, sport musobaqalari, ijodiy marafonlar mamlakatimizning barcha hududida, maktablar, mehnat jamoalari, kutubxonalarda boʻlib oʻtdi.

Dilshod KARIMOV
 (“Xalq soʻzi”).

OʻZBEKISTON TAʼLIM TIZIMINING GLOBAL MAYDONDAGI DADIL QADAMI

Oliy taʼlim sohasida dunyo mamlakatlari oʻz kuchlarini birlashtirib, hamkorlikni kengaytirishga intilmoqda. Bu faqat rasmiy hujjatlar masalasi emas, balki talabalar, oʻqituvchilar va ish beruvchilar uchun manfaatli boʻlgan global harakatdir.

Nuqtai nazar

Joriy yil Oʻzbekiston oliy taʼlimi tarixida chuqur iz qoldirayotgan davr boʻldi. Bu muhim tizim dunyoga yanada yaqinlashib, hamkorlikning yangi uqlari ochildi. Ilk bor Parijdan tashqarida — yurtimizda oʻtkazilgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ham taʼlim, ilm-fan, madaniyat, ijod hamda imkoniyatlarga boy yangi davrning boshlanishi boʻldi.

YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan Oliy taʼlimga oid malakalarni tan olish toʻgʻrisidagi Global konvensiya aynan shu yoʻnalishga xizmat qiladi. Uning asosiy gʻoyasi mamlakatlar oʻrtasidagi tajriba almashuvini yanada kuchaytirish, taʼlim sifatini oshirish va talabalar uchun yangi imkoniyatlar, yangi uqlarning ochilishidir. Ushbu konvensiya dunyo mamlakatlarini birlashtiruvchi taʼlim maydonini shakllantirib, yoshlarning bilim hamda malakasi xalqaro miqyosda eʼtirof etilishini osonlashtiradi. Eng muhimi, har bir talabaning orzu va intilishlariga keng yoʻl ochadi.

Global konvensiya ratifikatsiya qilindi

Shu yil 11-noyabr kuni mamlakatimiz tomonidan mazkur Global konvensiya ratifikatsiya qilindi. Bu nafaqat xalqaro huquqiy majburiyat, balki Oʻzbekiston taʼlim tizimi global maydonga dadil qadam qoʻyganining yana bir yorqin namunası boʻldi. Konvensiya ustuvor yoʻnalishlarda xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan.

Xususan, oliy taʼlim borasida davlatlar oʻrtasidagi hamkorlikni yanada faollashtirib, qoʻshma dasturlar, ilmiy hamkorlik va professor-oʻqituvchilar almashuvini kengaytiradi. Mintaqalararo tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash orqali innovatsion gʻoyalar va yangi taʼlim siyosatining shakllanishiga yoʻl ochiladi. Qolaversa, talabalar va mutaxassislarining erkin harakatlanishi, yaʼni global akademik mobillikni kuchaytirish, diplom hamda malakalarning tan olinishi taʼminlanadi. Natijada xorijga oʻqishga ketayotgan talabalar, ish izlayotgan yoshlar, ish beruvchilar va taʼlim muassasalarining oʻzaro integratsiyasi amalga oshadi.

Konvensiya, shuningdek, oliy taʼlim tizimlarining xilmaxilligini hurmat qilish, ularning mustaqilligini taʼminlash, diplom hamda malakalarni tan olish boʻyicha adolati, shaffof va ishonchli tartibni yaratishni koʻzda tutadi. Taʼlim muassasalarida sifatni nazorat



qilish madaniyatini kuchaytirish, mamlakatlar oʻrtasida ishonchli hamda doimiy yangilanadigan maʼlumot almashuvini yoʻlga qoʻyish, yashash manzili oʻzgarganlar va barcha fuqarolar uchun teng imkoniyat yaratish orqali inklyuziv taʼlimga yoʻl ochish, global miqyosda inson kapitalidan oqilona foydalanib, barqaror rivojlanishga hissa qoʻshish kabi ustuvor maqsadlarni ham qamrab oladi.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish — asosiy maqsad

Maʼlumot oʻrnida, 2019-yil 25-noyabrda Parijda qabul qilingan, 6 ta boʻlim, 25 maddadan iborat (6 tilda) boʻlgan mazkur hujjat — dunyo boʻylab oliy taʼlim malakalarini adolati, shaffof va teng asosda tan olinishi tartibiga soluvchi yagona global mexanizmdir. Konvensiya taʼlim tizimlarining jahon hamjamiyatiga integratsiyasini kuchaytirish, talabalar va professor-oʻqituvchilar mobillicini oshirish, oliy taʼlimda sifat mezonlarini uygʻunlashtirish, universitetlar oʻrtasidagi xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

YUNESKO maʼlumotiga koʻra, bugungi kunga qadar 38 davlat konvensiyani ratifikatsiya qilgan. Ular orasida jahon taʼlimidagi yetakchi mamlakatlar — Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Finlandiya, Shvetsiya hamda boshqa davlatlar bor. Endilikda bu mamlakatlar bilan yagona standartlarga ega boʻlish Oʻzbekiston taʼlimining ham yangi bosqichga koʻtarilishiga turki beradi.

Chegara bilmas bilim va malakalar universal boʻlishi kerak. Konvensiyaning ijobiy xususiyatlariga nazar solaylik. Akademik mobillik kreativ hamda innovatsion rivojlanish omilidir. Misol uchun, talaba Germaniya, AQSH yoki Janubiy Koreyaga stajirovkaga boradi, yangi texnologiya va metodlarni oʻrganadi, Oʻzbekistonga qaytib tajribasini ommalashtiradi. Agar oʻzaro tan olish tizimi boʻlmasa, chet el tajribasi rasmiy tan olinmaydi hamda ilmiy va texnologik rivojlanish sekinlashadi. Shaffoflik hamda

Fuqarolik jamiyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi — muhokamada

Poytaxtimizda “Taraqqiyot strategiyasi” markazi hamda Oʻzbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi hamkorligida “Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi” loyihasi boʻyicha jamoatchilik muhokamasi oʻtkazildi.

Tadbir

Tadbirda davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, ekspertlar, fuqarolik jamiyati institutlari va OAV vakillari qatnashdi. Shuningdek, mamlakatimizning turli hududlaridan 180 nafarga yaqin NNT vakillari onlayn formatda muloqotga qoʻshildi.

Muhokamada Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar yangi bosqichga koʻtarilayotgani taʼkidlandi. Jamoatchilik eʼtiboriga havola qilingan konsepsiya mamlakatimizda davlat va jamiyat oʻrtasidagi hamkorlikni sifat jihatdan yuqori darajaga olib chiqishi qayd etildi.

— Konsepsiya “Ochiq davlat — faol fuqaro” tamoyili asosida amalga oshiriladi, — deydi “Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori Eldor Tulyakov. — Bu jarayonda NNTlar jamiyat manfaatlarini ifodalash, ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surish va aholi fikrining davlat qarorlarida aks etishini taʼminlashda muhim oʻrin tutadi.

Tadbirda jamoatchilik kengashlari faoliyatini rivojlantirish, NNTlarning davlat boshqaruvida faol ishtirokini taʼminlash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, davlat grantlari tizimini takomillashtirish kabi masalalar boʻyicha fikr-mulohaza va takliflar bildirildi.

“Vatandoshlar” jamoat fondi boʻlim boshligʻi Akmal Shofayziyev oʻz soʻzida xorijdagi vatandosh olimlar va sohaviy mutaxassislarni, ekspertlarni jarayonga keng jalb etish zarurligiga urgʻu berdi.

— Muhim islohotlarni amalga oshirishda xorijdagi vatandoshlarimiz, ayniqsa, malakali ekspertlarni jalb etish katta natija beradi. Ular sohalar boʻyicha xalqaro tajribani olib kirishda muhim kuchga ega, — deydi u.

Tadbirda “Sharq ayoli” xalqaro ayollar jamoat fondi raisi Saodat Tursunboyeva tomonidan 12 yoʻnalishdan iborat takliflar taqdim etildi. U, ayniqsa, olis hududlarda faoliyat yuritayotgan ayollar NNTlarini qoʻllab-quvvatlash zarurligini taʼkidladi.

— Ayollar faoliyatini kuchaytirish uchun grant va subsidiya

dasturlarini joriy etish, xotin-qizlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, avlodlar muloqotini mustahkamlash muhim, — deydi Saodat Tursunboyeva. — Shu bilan birga, loyihalarni boshqarishda sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalanish boʻyicha oʻquv kurslarini tashkil etish dolzarb masala.

Shuningdek, muhokamada davlat organlari va fuqarolik institutlari oʻrtasida samarali muloqot platformasini yaratish, NNTlarning roli, vazifalari va masʼuliyatini aniq belgilash, amalga oshirish jarayonida shaffoflik va hisobdorlik taomillarini joriy etish, konsepsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taʼsirini baholashga qaratilgan amaliy mexanizmlar ishlab chiqish kabi muhim takliflar oʻrtaga tashlandi.

Yigʻilishda bildirilgan takliflar tizimli tarzda oʻrganilib, ulardan konsepsiya loyihasini yanada takomillashtirish jarayonida foydalanilishi taʼkidlandi.

Bu kabi tadbirlar mamlakatimizda demokratiyaning yanada mustahkamlash, fuqarolik jamiyatini qurishda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish, davlat — jamiyat hamkorligini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ulugʻbek ROʻZIMATOV
 (“Xalq soʻzi”).

hollarda universitetdan qoʻshimcha hujjatlar soʻralgan.

Masofaviy taʼlim boʻyicha cheklovlar ham mavjud boʻlgan. Pandemiya davrida masofaviy taʼlim keng tarqalgani bois baʼzi davlatlarning onlayn dasturlari tan olinmagan yoki rad etilgan. 2020 — 2024-yillarda xorijda oʻqiyotgan oʻzbekistonliklar soni keskin oshgani sababli ushbu masalada arizalar koʻpaygan.

Ratifikatsiyagacha boʻlgan davrda tizimga oid Nizom va qonunlarda birmuncha cheklovchi tamoyillar mavjud edi. Xususan, davlat oʻz taʼlim standartiga mos boʻlmagan diplomni tan olmaslik huquqiga ega boʻlgan, taʼlim dasturida farqlar kuzatilsa, fanlarni qayta oʻqish talab qilingan, masofaviy taʼlim faqat ayrim yoʻnalishlarda tan olingan, qoʻshimcha test, suhbat yoki sinov oʻtkazish qonuniy asosga ega boʻlgan. Rad etish holatlari koʻp va ochiqlik yetarli emas edi.

Endi-chi? Endilikda diplom global standartlar asosida tan olinadi, har bir diplom adolati, shaffof, aniq mezonlar asosida baholalanadi. Qisman tan olish esa majburiy tamoyil.

Konvensiya Oʻzbekiston uchun nima beradi?

Avvalo, xorijda olingan diplomlarni tan olish osonlashadi. Talabalar, magistrantlar, doktorantlar va tadqiqotchilar uchun qayta baholash jarayonlari tezlashadi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik loyihalari, qoʻshma dasturlar va akademik almashinuvlar koʻlami kengayadi.

Konvensiya uch asosiy tamoyilga tayanadi. Adolati va shaffof baholash mezonlari — har bir diplom yoki malaka aniq belgilangan mezonlar boʻyicha koʻrib chiqiladi. Toʻliq tan olinmasa — qisman tan olish, yaʼni toʻliq diplomni tan olish imkonı boʻlmasa, oʻqilgan fanlar yoki kreditlar qisman tan olinishi majburiy. Ochiq maʼlumot — har bir davlat oʻz oliy taʼlimi haqidagi maʼlumotni ochiq taqdim etishi shart. Bu tamoyillar, oʻz navbatida, assosiz rad javoblarining oldini oladi.

Talabalar uchun qator amaliy qulayliklar vujudga keladi. Jumladan, diplomni nostrifikatsiya qilish muddati qisqaradi. Avvallari 3 — 6 oyga choʻzilgan jarayon sezilarli

Biroq shunisi muhimki, imkoniyatlar faqat deklaratsiyada qolmasligi uchun oʻz oliy tizimimizni tayyorlashimiz kerak. Agar malakalarni tan olish jarayoni shaffof boʻlmasa, talaba diplomini xorijiy ish beruvchi yoki universitet tan olmaydi — paradoks holat yuzaga keladi. Shuningdek, chet eldan keladigan talabalar mehnat bozorida mahalliy bitiruvchilarga raqobat yaratishi mumkin. Shunday ekan, global imkoniyatlar yaratish bilan birga, mahalliy tizimni ham kuchaytirish, bilimlarni baholash mezonlari va standartlariga moslashtirish zarur.

Sherzod MUSTAFOQULOV
Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor.

“Qanot Sharq” aviakompaniyasi 15-dekabrden boshlab Toshkent — London — Toshkent yoʻnalishida haftada ikki marta muntazam parvozlarni yoʻlga qoʻymoqda.



Farrux ZOKIROV:

SAN'AT XALQNI BIRLASHTIRADI, MILLATNI YUKSALTIRADI!

katta ma'no bor. Bu faqat tan olish emas, ijodkorning ijodkorni tanii olishi, ya'ni uning yuragidagi nurni ko'ra olishdir. Shukshin ham, Botir akam ham xalqning og'rig'ini, dardini yurakdan his qilishgan.

Esimda, Gagarin vafot etganida, Botir akam ko'zi yoshlanib, "U faqat kosmosga chiqmagandi, u odamlarning qalbini ham kengaytirgandi", degan edi. Shukshin hayotdan ko'z yumganda ham rosa kuyingandi.

– **Akangizdan nimalarni o'rgangansiz?**

– Botir akam men uchun faqat aka emas, ustoz, yo'limni yorituvchi nur edi. U menga kuyni emas, so'zni his qilishni o'rgatgan. "Qo'shiq faqat ovoz va musiqadan iborat emas, uning yuragi – she'r", derdi. Haligacha har bir asarni yaratayotganda, uning o'g'itlarini eslab yondashaman.

She'riyatga bo'lgan hurmat ham akamdan o'tgan eng katta meros. U kishi: "Qo'shiqda so'zning mag'zi chiqmasa, u shunchaki tovush bo'ladi, xolos", derdi.

Akam she'rni kuyga solmasdi, suhbat qilardi. Men ham shu yo'lni tutdim...

– **"Yalla" guruhi a'zolari qayerda bo'lmasin, hamisha sahnaga o'zbekona, milliy liboslarda chiqqan. Betakror sahna liboslari tarixi haqida ham so'zlab bersangiz.**

– Bir kuni Botir akam "Nega Kamoliddin Behzod chizgan rasmlarni sahnaga olib chiqish mumkin emas?" deb qoldi. U kishi Behzod miniaturalaridagi kiyimlarga biroq zamonaviy sayqal berib chizib bergandi. Uning bu g'oyasidan hamkasblarimiz, libos rassomlari hayratlangandi.

Shu-shu, katta-katta konsertlarda, xorij sahnalarida sharqona, milliy liboslar egnimizdan tushmay kelyapti va bundan g'ururlanamiz. Chunki liboslar faqat matodan iborat emas, uning qatlarida yurt ramzi, madaniyatimiz va millat tarixidan so'zlovchi inja sirlar aks etgan.

– **San'atda milliylik va zamonaviylikni qanday uyg'unlashtirish kerak, deb o'ylaysiz?**

– Ildizi milliy bo'lmagan san'at uzoqqa bormaydi. Buni hayotning o'zi ko'p bor isbotlagan. Agar san'atkor o'z zamini, o'z tuprog'ini his etmasa, uning ijodi go'yo suvsiz daraxtdek qurib qoladi. Milliylikdan qalb rohatlanadi. Lekin faqat o'tmishga yopishib olish ham xato.

Men uchun zamonaviylik shakli, milliylik esa ruhdur. Ular bir-birini to'ldiradi. Har ikkalasini uyg'unlashtira olgan ijodkor esa haqiqiy san'atkoridir.

– **Siz uchun "muvaffaqiyat" so'zi nimani anglatadi?**

– Mening nazarimda, bu xalqing muhabbatini qozonish demak. Sahnaga chiqqaningda tomoshabinlarning mehrlri nigohi va olqishidan yuraging toshsa, shu – muvaffaqiyat. Olqish olish esa oson emas...

– **Hayot faqat yorug'likdan iborat emas, og'ir kunlar ham bo'ladi. Ularni qanday yenggansiz?**

– Ha, hayot sinovlardan iborat. 1976-yilning kuzida... Navfal akamning vafoti oilamiz ko'ksidagi beg'ubor kulgini, shirin qahqahani o'g'irladi. O'sha damgacha ayriqli azobini, o'lim musibatini bilmas edim...

Hech kim farzand dog'ini ko'rmasin ekan. Otam 35 yoshida olamdin o'tgan akamdan so'ng ko'p yashamadi. Mazasi qochgan otamni kasalxonaga olib bordik. Shifokorlar "obshirniy infarkt..." deydishi. Men "obshirniy nima degani?" deb, yonimdagi Turob To'lagaga yuzlandim. U: "Farrux, yuragi tilka-pora degan gapni eshitganmisan, shu..." deya uh tortib qo'ygandi...

Hayotimda yo'qotishlar ko'p bo'ldi. O'tganlarning hammasini Alloh rahmatiga olgan bo'lsin.

Og'ir damlarda men musiqa eshitaman, sukunatga suyanaman...

– **Agar vaqt mashinasi bo'lsa, qaysi davrga qaytgan bo'lardingiz?**

– Albatta, bolalikka!

– **Siz uchun sahna nima?**

– U muqaddas joy! Afsuski, san'atni va sahnani qadrlamaydiganlar ham ko'payib ketyapti. Men sahnaga jinsi shim, krossovka kiyib chiqadiganlarni tushunmayman. Yarim yalang'och chiqadiganlarni esa hazm qilolmayman. Ba'zan sahnadagi yengillik, beandishalik, "zamonaviylik" niqobi ostidagi

ma'naviy bo'shliqni ko'rib, yuragim og'riydi. Mayli, meni zamondan ortda qolgan deiyshsin, lekin fikrim shu!

– **Hozirgi zamonda san'at ko'proq shou-biznesga aylanib borayotgandek...**

– Aslida shou yomon narsa emas. Lekin u maqsad emas, vosita bo'lishi kerak. Agar sahnada ko'zbo'yamachilik qilinsa, u haqiqiy san'at emas. San'at insonni o'ylantirishi, his qildirishi lozim. Qo'shiq quloqqa emas, qalbgga singishi kerak.

– **Bugun san'at olamida nimalar yo'qotilyapti?**

– Samimiyat va So'z! Hozir ko'pchilik imiy yaratish bilan ovora. Lekin xalqimiz haqiqiy so'zni farqlay oladi.

– **Ijoddagi eng katta qiyinchilik nimada?**

– O'zingni takrorlamaslik. Ya'ni har bir yangi

qo'shiq har jihatdan yangi bo'lishi kerak.

– **"Yalla" shunchaki bir guruh emas, balki madaniy diplomatiyaning ham ramzi bo'lgan. Shunday emasmi?**

– Biz "O'zbekiston", "o'zbek" degan nomni qo'shiqlarimiz bilan dunyoga tanitishga harakat qildik. Parij, Tokio, Moskva, Berlin... Hamma joyda yurtimiz va xalqimiz nomidan kuylaganmiz, kuylaymiz ham.

– **Farrux aka, sovet zamonida ham, undan keyingi davrlarda ham badiiy ijod, musiqa va umuman, madaniyat va san'atning deyarli barcha turilarida siyosatga "dastyorlik" asosiy prinsippga aylangan edi. Ammo ijodningizni kuzatgan odam siz torgan "xolst"da bu rangni deyarli sezmaydi... Aksincha, siyosat, davriy va mavsumiy mavzulardan ko'ra, Vatan, ona yurt tabiati, xalqimizning tarixi hamda madaniyatini ifodalovchi qo'shiqlar yaratishga ko'proq e'tibor bergandaysiz. Masalan, Toshkent, Samarqand, Andijon, Uchquduq, Shahrisabz kabi shaharlarga bag'ishlangan qo'shiqlaringiz butun mamlakatni qamrab olgan va hozirgi til bilan aytganda, xit bo'lgandi. "Boychechagim boylandi..." bilan millatning bir necha avlodi ulg'aydi.**

Aytig'chi, bularning bari avvaldan rejalashtirilgan ijodiy loyihamidi yoki tabiiy jarayon?

– Yo'q, hech qanaqa loyiha qilinmagan, hammasi tabiiy kechgan. Har bir qo'shiqning o'z tarixi bor. Masalan, "Uchquduq" bir soatda yaratilib, keyin kechki dasturda ijro etilgan. Biz bu shaharda ko'p konsert berganmiz. Bir safar borganimizda, shoir Yuriy Entin "Yigitlar, Uchquduqqa atab she'r yozdim, shuni qo'shiq qilmaymizmi?" dedi. She'rni o'qidik, hammaga yoqdi. Lekin yigitlar Toshkentga borgach, qo'shiqni studiyyada yaratish kerakligini aytishdi. Hamma tushlikka ketdi, men esa shoir bilan qoldim va uning ko'ngli uchun gitarada kuy chalib, qo'shiqni xirgoyi qildim. Yigitlar qaytgach, shoirning iltimosi bilan ularga ham ijro etib berdim. Yuriy Entin "Hech narsani o'zgartirmasdan shu qo'shiqni kechki dasturda aytсалaringiz, yaxshi bo'lardi", dedi. Bu fikrga Botir akam ham qo'shildi. Xullas, kechki dasturda qo'shiq muxlislarga taqdim etildi. Odatda, konsertdan so'ng ayollar va qizlar dastxat olish yoki suratga tushish uchun kutib tusharid. Bu safar esa faqat erkaklar kelib, yangi qo'shiq bilan tabriklab, qo'limizni siqib ketishgandi...

"Shahrisabz"ning ham tarixi qiziq. Shaharning o'sha vaqtdagi amaldorlaridan biri, ajoyib adib Yevgeniy Berezikov qo'linga shi'r tutqazib, kulimsiragancha, "Hamma yoqda «Uchquduq» yangrayapti, iltimos, bizning shahar ham qolib ketmasin", degandi. U kishining Shahrisabzga munosabati, mehri tufayli ham bu iltimosni rad etib bo'lmadi. Xullas, yurt haqidagi qo'shiqlar yurti sevgan insonlar bilan hamkorlikda yaratilgan.

– **Vaqt kelib, "Yalla" ansamblining 100-yillik yubileyi nishonlansa, siz uni qanday tasavvur qilasiz?**

– Ilohim, hammamizni o'sha kunlarga yetkazsin. Tishlarim to'kilib, munkayib qolsam-da, hech bo'lmasa, likopcha bilan "Toshkanim onam"ni ayardim. Avvalo, tadbirning betakror o'tishini istardim. Keyin yana bir gap: bir kuni kechki payt uyga qaytayotсам, mahalladagi bolalarning "Yalla, yalla, yaponskaya kalla..." deb xirgoyi qilishayotganini eshitib qoldim. Avvaliga jahlim chiqdi, so'ng yonlariga borib, qo'shiqni nega buzib aytishayotgani sababini so'radim. Ular bu qo'shiqning so'zi

va ohangidan foydalanib, o'zlaricha bolalarbop yangi qo'shiq yaratishibdi. Kulib qo'ydim.

"Yalla"ning yubileyiga o'sha "yallachilar"ni ham taklif etardim.

– **Bugun sun'iy intellekt yordamida kuy-qo'shiq ham yaratilyapti. Siz bunga qanday qaraysiz?**

– Sun'iy intellekt ko'p sohalar uchun foydali bo'lishi mumkin. Lekin hech qachon insonga o'xshab kuy-qo'shiq yaratolmaydi. Chunki u holat, kayfiyat, tuyg'u va ruhiyatni odamchalik his qilolmaydi.

– **Adashmasam, haligacha otangiz Karim Zokirov repertuaridan bironta qo'shiqni ijro etmagansiz? Sabab...**

– To'g'risi, jur'at qilolmayman. Navoiy bobomiz aytganlaridek, "Oson emas bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasig'a panja urmoq".

– **Mashhurlik sizga nima berdi va nimalardan chekladi?**

– Avvalo, xalqimning mehrini, ishonchini berdi. Qolaversa, dunyo kezdim, dunyoni tanidim. Cheklolvorga kelsak, el qatori emin-erkin yurolmayman, ya'ni "ramka"dan chiqolmayman.

– **Sahnadagi Farrux Zokirov bilan shaxsiy hayotdagi Farrux Zokirov orasida qanday farq bor?**

– Sahnaga san'atkor bo'lib chiqaman, hayotda esa hamma qatori oddiy odamman.

– **Deylik, yoshlik paytingizdagi o'zingiz bilan uchrashsangiz, unga qanday maslahat bergan bo'lardingiz?**

– Kimligingni, kimning farzandi, kimning ukasi ekaningni unutmna, derdim.

– **Tasavvur qiling, agar cholg'u asboblari insonning xarakteri, dunyoqarashi, ruhiyatini ifodalaydigan bo'lsa, siz qaysi cholg'u asbobi tanlagan bo'lardingiz?**

– Tanbur va satoni.

– **Sizningcha, san'at nima va bugun u qay darajada?**

– San'at – millatning yuragi. U har qanday holatda, ya'ni qayg'uli damlarda ham, quvonchli kunlarda ham urib turadi. Shu yurakni asrab-avaylash esa e'tibor va mehrga bog'liq, albatta. Uzoq yillardan beri ijod qilib kelyapman, turli davrlarni, turli rahbarlarni ko'rdim. Ammo bugungi kundagidek davlat darajasida san'at va ijodkorga bo'lgan samimiy munosabat hamda mehri kuzatmagandim. Ilgari milliy madaniyat faqat sahnalarda yashagan bo'lsa, bugun u davlat siyosatining ma'naviy markaziga aylandi. Davlatimiz rahbarining madaniyat va san'at ahli bilan uchrashuvlari, ularning fikr-mulohazalarini tinglashi, muammolariga bevosita yechim izlashi, hamma-hammasi yuksak e'tibor namunasi, albatta.

Menimcha, sohaga ajratilayotgan moddiy yordamlardan ko'ra, unga qaratilgan ma'naviy e'tiborning qadri baland. Chunki bu mehr, bu ishonch pul bilan o'chanmaydi.

San'atkor uchun mehnati qadrlansa, ijodi qablarga yetib borsa – shu katta baxt. Buni so'nggi yillarda har bir ijodkor yurakdan his etmoqda. Chunki Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning e'tibori va g'amxo'rligi tufayli bugun o'zbek san'ati o'zgacha shakl va ifor bilan gullamoqda. Bu gul – mehrdan suv ichyapti, ildizi e'tibordan baquvvatlashyapti, novdasi esa ishonchdan ko'karib ko'tarilmoqda. Milliy madaniyat ravnaqi uchun amalga oshirilayotgan islohotlar o'z miqyosi va mazmuni bilan butun jamiyatda yangi ruh, yangi nafas uyg'otdi. Bu o'zgarishlar markazida bir haqiqat bor – san'at xalqni birlashtiradi, millatni yuksaltiradi!

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek, madaniyat va san'at millatning ruhiy qudratidir!

– **Farrux Karimovich, qimmatli vaqtigingizni ayamaganingiz va mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur!.. Ha, aytgancha, siz uchun vaqt nima?**

– Vaqt shunday narsaki, uning daqiqalardagi qadri bemojar, soniyalardagi ahamiyatini sportchilar juda yaxshi bilishadi. Afsuski, ko'pchiligimiz telefon va gadjetlarga yopishib, vaqtini "o'ldiryapmiz". Ancha bo'ldi, kundalik hayotimizda qumsoatlarni ishlatmay qo'ydik...

– **Farrux aka, samimiy suhbat uchun yana bir bor rahmat! Hamisha xuddi hozirgidek – non va suvdek aziz bo'ling!**

"Ishonch" muxbiri Alijon ABDURAHMONOV suhbatlashdi.

(Manba: "Ishonch" gazetasi, 2025-yil 18-noyabr).

VODIYLARNI

YAYOV KEZGANDA...

BIR ASRLIK MAKTABNING KO'RKAM BINOSI

Marg'ilon shahridagi "Yovqochar" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan 8-umumta'lim maktabi bundan bir asr muqaddam bunyod etilgan bo'lib, bugungi talablarga javob bermas edi. Shu bois investitsiya dasturi asosida 10 milliard 800 million so'm mablag' jalb qilinib, bilim dargohida mukammal ta'mirlash ishlari olib borildi.



O'z navbatida, 420 o'rinni yangi o'quv binosi ham foydalanishga topshirildi. Shu tariqa maktabning to'rt qavatli binosi va sport zalida barcha qulaylik muhayyo qilindi.

– Ayni paytda bu maskanda 1701 nafar kelajagimiz vorisi ta'lim-tarbiya oladi, – deydi maktab direktori Irodaxon Mamajonova. – Yangilanishlar jarayonida sinf xonalari kompyuter jihozlari, elektron doskalar, tikuv mashinalari bilan jihozlandi.

Aytish joizki, bugungi kunda maktabda 10 nafardan ziyod ustozlar ming dollar ekvivalentida ish haqi oladi, yigirmadan ortiq o'qituvchilar milliy va xalqaro sertifikatlarga ega. Birgina joriy yilning o'zida 86 nafar bitiruvchining 55 nafari oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirdi.

ZAMONAVIY AVTOBUSLAR EL XIZMATIDA

Shu kunlarda Farg'ona shahrida jamoat transporti sifatini yanada yaxshilash maqsadida xorijdan olib kelingan 24 ta avtobus yangi yo'nalishlarga joylashtirildi.



Natijada avtobuslar qatnovi oraliq jadvallarini qisqartirishga hamda ilgari jamoat transporti yo'lga qo'yilmagan hududlarni qamrab olishga erishiladi. E'tiborlisi, ushbu avtobuslar yozda salqin, qishda issiq haroratni saqlash orqali yo'lovchilarga qulaylik yaratadi.

– Viloyat markazi – Farg'ona shahrida jamoat transporti sifatini oshirish uchun so'nggi ikki yil mobaynida 4 ta tashuvchi korxona tomonidan qariyb 100 ta zamonaviy avtobus olib kelindi, – deydi Farg'ona viloyati Transport boshqarmasi shu'ba boshlig'i Shamsurbek Mahmudov. – Hozirgi kunda ushbu avtobuslar brutto shartnomasi asosida 10 ga yaqin yo'nalishlarda xizmat ko'rsatib kelmogda.

Joriy yil yakuniga qadar aholiga transport xizmati ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan yana 36 ta zamonaviy avtobus sotib olinishi rejalashtirilgan.

QO'QONDA QUYNCHILIK KLASTERI

Qo'qon shahar hokimligi tashabbusi bilan quyonchilik klasteri tashkil etilib, 15 ta mahallada quyon boqish, parhezop bo'sht yetishtirish bo'yicha amaliy sa'y-harakatlarga kirishildi.



Kuni kecha shahardagi Chorchinor mahallasida istiqomat qiladigan 10 dan ortiq ehtiyojmand oilalarga 100 bosh quyon tarqatildi. Hozirda 15 ta mahallaga tarqatish uchun 2 mingdan ziyod quyonlar xazirasi shakllantirildi.

– Egzu tashabbus doirasida "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan oilalar quyonlarni ko'paytirib sotish orqali doimiy daromad manbaiga ega bo'ladi, – deydi O'zbekiston mahallalari uyushmasi Qo'qon shahar bo'limi boshlig'i Zafar Jo'rayev. – Ayni jarayonda klaster korxonasi barcha yumushlarda quyon boquvchilarga yaqindan ko'makdosh bo'ladi. Shu bois ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi bunday oilalardan hech qanday ortiqcha xarajat talab qilinmaydi.

Bu yurtimizda ehtiyojmand aholini kambag'allikdan chiqarish, kichik biznes va tadbirkorlikka jalb etishga qaratilgan xayrli ishlarning amaldagi yana bir tasdiq'idir.

Botir MADIYOROV ("Xalq so'zi").

Shu yilning 20-noyabr kuni Toshkentda "CAEx Build & Co." 2-xalqaro qurilish va dizayn ko'rgazmasi ochiladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1142. 10 552 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun o'zini rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir A. Aliqulov.
Masahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00 **1 2 3 4 5 6**